



NEMIS TILI FRAZEOLOGIZMLARINING TASNIFI

Saidaxon Mustafoeva

Farg'ona davlat universiteti talabasi

ARTICLE INFO

Received: 21th June 2023

Accepted: 28th June 2023

Online: 29th June 2023

KEY WORDS

Frazeologiya, erkin birikma, fraseologische Einheiten (frazelogik birliklar), o'tli/fe'lli birikmalar.

ABSTRACT

Ushbu maqola nemis tilidagi frazeologik birliklarga bag'ishlanadi va Frazeologiya termini, uning kelib chiqish tarixi haqida qisqacha ma'lumot keltirib o'tiladi. Nemis frazeologizmlari misollar bilan yoritiladi, ularning ma'nolari, qay vaziyatda nutqqa olib kirilishi, tuzilish tarkibi, qo'shimcha sifatida ularning gap tarkibida qaysi bo'lak vazifasini bajarib kelishi to'g'risida so'z boradi.

Ma'lumki, jahon tilshunosligining muhim ahamiyatga molik bo'lgan, ko'plab tilshunos olimlarning tadqiqot obyekti bo'lib kelayotgan fan frazeologiyadir. Frazeologiya (yunoncha phrasis-ifoda, ibora va logos-ta'limot) – kabi ma'nolarni anglatib, tilda mavjud bo'lgan frazalar majmui hamda shu frazemalarni o'rganuvchi bo'lim ham sanaladi. Frazeologizmlar ma'nosi bir so'z yoki gapga teng keladigan leksik birliklardir. Tilshunoslikning bir bo'limi hisoblangan frazeologiya ushbu frazeologizmlarning kelib chiqishi, tabiati, kategorial belgilarini va nutqda qanday va qay vaziyatda qo'llanilishini tadqiq etib o'rganadi. Frazeologiyaga tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida XX asrning 40-yillarida rus adabiyoti namoyondalari asarlarida asos solingan. Keyinchalik esa bu sohaga olimlarning qiziqishi orta boshladi. Yillar davomida shakllanib kelayotgan frazeologizmlar so'zlashuv, badiiy va publitsistik uslublarda o'tkir va ta'sirchan vosita sifatida qo'llanilib keladi. Yosh va gender jihatdan ulardan foydalanish chegarasi deyarli sezilmaydi. Sababi, ko'chma ma'nodagi bunday iboralar nutqimizga shunday singib ketganki, yosh-u qari ulardan birdek foydalanadilar.

Erkin birikma – bu barqaror birikma, ya'ni birikma tarkibidagi so'zlarning har birida tobeklik munosabati mavjud, bir oz ma'no mustaqilligi saqlangan birikma. Erkin birikmani tashkil etuvchi so'zlar ma'nosi frazeologik bog'lanishlarda tobeklikni bildiradi, bundan tashqari har biri mazkur so'zlar bilan faqat birikmalarda ko'rsatiladi. Butun birikma ma'nosi uni tashkil etuvchi so'zlar ma'nosidan anglashiladi.

Ko'rinadiki, frazemaning qismlari bir butun yaxlitlikda ma'no kasb etadi. Garchi turg'un birikmalar – frazeologizmlar erkin birikmalar kabi sintaktik qurilishli birikmalar bo'lsa ham, butun qism gapda bir vazifani bajarib, yagona bo'lak bo'lib keladi.

Shuxratxon Imyaminova "Немис тили фразеологияси" deb nomlangan kitobida frazeologizmlarni funksional tamoyil asosida tasniflagan. Unga ko'ra frazeologizmlar 2 guruhga bo'linadi: birinchisi, *leksik birliklar (lexikalische Einheiten)* nominative funksiyaga ega bo'lgan frazeologizmlar kiradi, masalan, *in Frage kommen (muhokama qilmoq), in Erfahrung*



bringen(xabar bermoq, bildirmoq); ikkinchisi, *asl ma'noga ega bo'lgan frazeologizmlar* (*phraseologische Fügungen*). Ikkinchi guruhga mansub bo'lgan frazeologizmlarni SH.Imyaminova kichik-kichik guruhlarga ajratadi: idiomalar (Idiomen), frazeologik birikmalar (*phraseologische Wortbindungen*), juft so'zlar(Wortpaare), maqollar(Sprichwörter), matallar (Geflügelte Worte),turg'un o'xshatishlar (stehende Vergleiche).²

Frazeologik birliklar (Phraseologische Einheiten) yaxlit holda, bir butunlikda ma'no kasb etadi. Uning tarkibida ishtirok etgan komponentlar alohida olib, tarjima qilinmaydi. Masalan, „von A bis Z“ iborasi o'zbek tiliga „boshdan oyoq“, „ipidan ignasigacha“, „miridan sirigacha“ deb tarjima qilinadi. Ibora tarkibida qo'llangan nemis alifbosining birinchi va oxirgi harflari misolida biror ishning boshidan oxirigacha bo'lgan qismini tushunishimiz mumkin. Masalan, *Er hat uns über den passierten Unfall von A bis Z gesprochen. (U bizga sodir bo'lgan halokat haqida boshdan oyoq gapirib berdi)*. „Blaues Blut“ iborasi ham so'zma-so'z „ko'k qon“ deb tarjima qilinishi kerak, lekin bu aynan so'z birikmasi emas, balki ibora bo'lganligi sababli uni ko'chma ma'nosiga e'tibor qaratiladi va „oquyak“ yoki „oliy tabaqadan kelib chiqqan“ odamlarga nisbatan ishlatiladi.

Frazeologik birikmalar ko'p hollarda morfologik tuzilish jihatdan fe'lli so'z birikmalaridan iborat bo'ladi:

a) ot+fe'l: jmdm. Bescheid sagen (kingadir yo'l-yo'riq ko'rsatmoq), Farbe bekennen (ochig'ini aytmoq), Schule machen (o'xshatmasini topmoq);

b) predlogli so'z + fe'l : von der Hand gehen (ishi o'ngidan kelmoq), auf zwei Hochzeiten tanzen (bir o'q bilan ikki quyonna urmoq);

c) sifat + ot+ fe'l: jmnds. rechte Hand sein (kimningdir o'ng qo'li bo'lmoq), den großen Mund haben (maqtanmoq, katta gapirmoq)

d) sifat+ fe'l: platt sein (lol bo'lmoq, qoyil qolmoq), jmdn. ernst nehmen (qattiqqo'l bo'lmoq);

e) fe'l+ fe'l: erschossen sein (tinkasi qurimoq).

Bunga qo'shimcha sifatida, sifat+ot (blinder Eifer- o'ylamay qilingan ish; blinder Passagier- chiptasiz yo'lovchi), ot+ot (mit Acht und Krach- zo'rg'a), sifat+sifat (fix und fertig-tayyor; klipp und klar- aniq, ravshan) ko'rinishidagi frazeologizmlar ham ko'p uchraydi.

Frazeologizmlar matnda qaysi gap bo'lagi vazifasini bajarishiga qarab, aniqroq qilib aytganda, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinish jarayonida qaysi so'z turkumiga mansub ekanligiga ko'ra ham tasniflanadi. Asosan, ko'p hollarda yuqorida ta'kidlab o'tilgan fe'lli frazeologizmlar gapda bir butun kesim vazifada keladi. *Er hat sich während des komischen Filmes krankgelacht*. Ushbu misolga ko'ra „*sich krank lachen*“ iborasi o'zbek tilida *kulaverib ichagi uzilmoq* iborasiga to'g'ri keladi va gapda kesim vazifasini bajaradi. Bundan tashqari ot yoki sifat birikmali frazeologizmlar gapda qolgan ikkinchi darajali bo'laklar vazifasida kelishi mumkin. Misol uchun, *Er hat diese Arbeit mit Acht und Krach geschafft*. (U bu ishni zo'rg'a bajardi). Yoki *Der Arbeitnehmer hat wegen seiner Faulheit ein blauer Brief genommen*. (Ishchi dangasaligi tufayli *ishdan bo'shatilganligi haqida xat* oldi).

Bundan tashqari, nemis tilidagi frazeologizmlarni quyidagi turlarga bo'lishimiz mumkin:

Asosiy ma'nosini ozod etgan frazeologizmlar: Bu frazeologizmlar asosiy ma'nosini o'zgartirgan bo'lib, boshqa ma'nolarini o'rniga ishlatiladi. Misol uchun, „Butter bei die Fische“ deyilganda, bu „Biror narsa haqida ishonsangiz, uning pulini bering“ deb tarjima qilinadi.



Ma'no yo'llanishlari bo'yicha tasnif: Bu turdagi frazeologizmlar biror ma'noni anglash uchun qo'llaniladigan ifodalardir. Masalan, „ins kalte Wasser werfen“ deyilganda, bu „Biror kishi uchun tang bo'lgan voqea yuzasida uning reaksiyasini test qilmoq“ deb tarjima qilinadi.

Tadbir va harakatlar bilan bog'liq frazeologizmlar: Bu frazeologizmlar biror tadbir, harakat yoki hodisalar bilan bog'liq ma'noni ifodalaydigan birikmalardir. Misol uchun, „auf die Pauke hauen“ deyilganda, bu „Ahamiyatli voqea yuzasida ruxsatli tarzda gaplashmoq“ deb tarjima qilinadi.

Obyektning xususiyatlari bilan bog'liq frazeologizmlar: Bu turdagi frazeologizmlar belgilangan obyektning xususiyatlarini ifodalaydigan ma'nolarga ega bo'ladi. Misol uchun, „ein Auge zudrücken“ deyilganda, bu „Juda sodir bo'ladigan xato yoki tartibsizlikni ko'rib chiqmaslik“ deb tarjima qilinadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, nutqning ifoda ta'sirchanligini belgilab beruvchi frazeologizmlarsiz tilni mukammal darajada o'zlashtirib bo'lmaydi. Ma'lum tilni o'rganish jarayonida frazeologizmlar katta ahamiyat kasb etadi. Nemis va o'zbek tillari bir-biridan juda ko'p jihatlarida farq qilishiga qaramay, nemis frazeologizmlarni o'zbek tiliga tarjima qilish davomida mutanosib ekvivalent variantlarni uchratamiz. Muhimi, ularni gapda to'g'ri o'rinda qo'llay olish va mazmunan anglab yetishdir.

References:

1. Z.Kuvonov, Nemis tilshunosligida frazeologizmlarning o'rganilishi. Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2022.383-bet
2. Ш.Имяминова, Немис тили фразеологияси. ТОШКЕНТ-2011
3. Кахаров, К. Ш. Узбек ва немис нуткий этикетларининг киёсий тадкики. Филология фанлари буйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси, Андижон-2020.
4. Kakharov, K., & Ergasheva, S. (2022). Main Features and Functions of Uzbek and English Advertising. International Journal of Culture and Modernity, 14, 56-60.
5. Kakharov, K. (2023). FORMS OF GREETING AND ADDRESS IN THE UZBEK AND GERMAN PEOPLES. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(4), 635-637.
6. O'G'Li, K. K. S., & Ogli, A. M. K. (2022). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OLAM LISONIY MANZARASI VA UNING MAQOLLARDA IFODALANISHING AHAMIYATI. Ta'lim fidoyilari, 2, 15-21.
7. Kaxarov, Q., & Usmanova, F. (2023). NEMIS TILIDAGI GRAMMATIK KATEGORIYALARNING O 'ZIGA XOSLIKLARI VA ULARNI O 'ZBEK TILI BILAN TAQQOSLASH. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(4), 148-151.
8. Kakharov, K., & Olimov, M. (2023). GERMAN IDIOMATIC EXPRESSIONS: UNVEILING THE ETIQUETTE OF SPEECH. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 604-606.
9. Kaxarova, M. M., & Aripova, S. (2023). UNIQUE CHARACTERISTICS OF LEXEMES RELATED TO MARRIAGE IN DIFFERENT COUNTRIES. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(4), 185-188.
10. Kakharova, M. (2023). ASSESSMENT OF THE KNOWLEDGE OF LANGUAGE LEARNERS. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(4), 181-184.



11. Sh, K., & Akramova, F. (2022). Unnatives Speak as Innatives. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(12), 116-120.
12. Kakharova, S. (2022). Culture of Communicative Interaction between Teachers and Students during Pedagogical Cooperation. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(12), 96-98.
13. Sh, K., & Jurayeva, S. (2022). Drawing As a Means of Understanding Difficult Concepts. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(12), 121-124.